

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.02.2020.B.01.15 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

JOBBOROV BAXROM TURG‘UNOVICH

**TOSHKENT VILOYATINING JANUBIY-SHARQIY HUDUDI
TUPROQLARINING EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING
REKULTIVATSIYASI**

**11.00.05 - Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish
03.00.13 - Tuproqshunoslik**

**BIOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT - 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
Contents of dissertation abstract of doctor of sciences (DSc)

Jobborov Вахром Турғунovich

Toshkent viloyatining janubiy-sharqiy hududi tuproqlarining ekologik holati
va ularning rekultivatsiyasi..... 3

Джобборов Бахром Турғунович

Экологическое состояние и рекультивация почв юго-восточного
региона Ташкентской области..... 29

Jobborov Bahrom Turgunovich

Ecological condition of the soils of the southeastern region of Tashkent
region and their recultivation..... 57

E’lon qilingan ishlar ro’uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 61

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.02.2020.B.01.15 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

JOBBOROV BAXROM TURG‘UNOVICH

**TOSHKENT VILOYATINING JANUBIY-SHARQIY HUDUDI
TUPROQLARINING EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING
REKULTIVATSIYASI**

**11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish
03.00.13 – Tuproqshunoslik**

**BIOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Biologiya fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/B156 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.nuu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	Jabbarov Zafarjon Abdulkarimovich biologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponenlar:	To'raboyev Akmal Normo'minovich biologiya fanlari doktori, professor Artiqova Hafiza To'ymurodovna biologiya fanlari doktori, professor Turdaliyev Avazbek Turdaliyevich biologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.B.01.15 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil 27-avgust kuni soat 10⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi 4-uy, O'zbekiston Milliy universitetining Ekologiya fakulteti binosi, 2-qavat, 203-xona. Tel.: (+99871-246-67-72).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (71-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi 4-uy, Tel.: (+99871-246-67-72).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 2-avgust kuni tarqatildi.

(2024-yil 2-avgustdagi 24-raqamli reyestr bayonnomasi)

Raximova To'ra Uzoqovna

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, biologiya fanlari doktori, professor

Allaberdiyev Rustamjon Xamrayevich

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash kotibi, biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Eshova Holisa Saidovna

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, biologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo bo'yicha aholi sonining ortishi natijasida sanoat tarmoqlari, energetika va foydali qazilma konlarini mahsulotiga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Natijada, turli «...sanoat tarmoqlarining faoliyati ta'sirida tuproqlarda zaharli kimyoviy moddalar va og'ir metallarni to'planishi uning texnogen buzilishiga, xossalarini o'zgarishiga, unumdorlik ko'rsatkichini pasayishiga hamda oziq-ovqat mahsulotlari sifatini buzilishiga olib kelmoqda»¹. Shuning uchun bugungi kunda dunyo bo'yicha sanoat tarmoqlari ta'sirida tuproqlarning texnogen ifloslanishini oldini olish, unumdorlik ko'rsatkichini oshirish, degradatsiyaga uchragan hududlarni tiklash va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda metallurgiya, energetika, kimyo sanoati, konlarni o'zlashtirish, ishlab chiqarish, qayta ishlash hamda xizmat ko'rsatish tarmoqlari ta'sirida tuproqlarning ifloslanishi natijasida texnogen buzilish bilan bog'liq holatlarni aniqlash, sanoat tarmoqlari ta'sirida ifloslangan chegaralarini aniqlash, tuproqlar unumdorligini qayta tiklashga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada ifloslangan hududlar manbalari va omillarini aniqlash, sanoat tarmoqlarini tuproqlarga ta'sir darajasiga qarab unga mos rekultivatsiya texnologiyasini ishlab chiqish, tuproqlarni mikrobiologik, kimyoviy, fizikaviy xossalarini aniqlash va uni yaxshilashga qaratilgan tadqiqotlarga e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda sug'oriladigan tuproqlarning hududlar kesimida, ifloslanish turi, kimyoviy, fizikaviy mikrobiologik xossalarini o'zgarishiga qarab rekultivatsiya turini qo'llash, rekultivatsiya tadbirlarini amalga oshirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini ishlab chiqish orqali tuproq unumdorligini tiklashga qaratilgan ishlarni yanada rivojlantirishga doir chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi «2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5863-son Farmonida «...atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, atrof muhit obyektlarini (atmosfera havosi, suv, yer, tuproq, yer qa'ri, bioxilma-xillik, qo'riqlanadigan tabiiy hududlar) antropogen ta'sir hamda boshqa salbiy ta'sir qiluvchi omillardan saqlash va sifatini ta'minlash»² kabi ustuvor vazifalar beliglangan bo'lib, ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, sanoatlashgan hududlarni kimyoviy moddalar bilan ifloslanishini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni³, 2020-yil 7-sentabrdagi PF-6061-son «Yer hisobi va davlat kadastrini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi

¹ <https://pollutioneducation.com/land/what-are-the-effects-of-industrial-pollution-on-soil-quality>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 - yil 30 - oktabrdagi «2030 - yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» PF-5863-son Farmoni.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - yil 28 - yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni.

Farmoni⁴, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi «2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 83-sonli Qarori⁵, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-277-sonli Qarori⁶, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi “Buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish, tuproqning unumdor qatlamini saqlash va undan oqilona foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 169-son Qarori⁷ hamda tuproqlarning ekologik holatini yaxshilashga qaratilgan boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi⁸ Sanoatlashgan hudud tuproqlarning texnogen buzilishi, tuproq xossalari va ekologik holatini o‘rganish, mos rekultivatsiyasini ishlab chiqish, unumdorligini tiklashga yo‘naltirilgan tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot institutlari hamda universitetlarida, jumladan, Warsaw University of Life Sciences, (Polsha), Xiamen University (Xitoy), University of Western Australia, (Avstraliya), Universite d Orleans, (Fransiya), National Research Irkutsk State Technical University (Rossiya), University of Florence (Italiya) va O‘zbekiston Milliy universitetida (O‘zbekiston) olib borilmoqda.

Sanoat tarmoqlarining faoliyati ta‘sirida ifloslangan tuproqlarning texnogen buzilishi, ekologik holatining o‘zgarishi, tuproq-iqlim sharoitiga mos rekultivatsiya texnologiyasini yaratishga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalar olingan: jumladan, elektrostansiya atrofida vujudga kelgan kimyoviy ifloslanish natijasida tuproqda to‘plangan Fe, Al Si va Mn elementlarini tuproq hosil bo‘lish sharoitiga ta‘siri, texnogen tuproqning (Technosols) paydo bo‘lishi, organik moddalar bilan bog‘liqligi hamda agregatlarning o‘zgarishi asoslab berilgan (Warsaw University of Life Sciences, Polsha); texnogen buzilgan tuproqlarning ekologik modeli yaratilgan (Xiamen University, Xitoy); energetika tarmog‘i

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 7 - sentabrdagi PF-6061-son «Yer hisobi va davlat kadastrini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagigi Farmoni.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 - yil 21 - fevraldagi «2030 - yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 83-son Qarori.

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - yil 10 - iyundagi “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-277-sonli Qarori.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 - yil 29 - apreldagi «Buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish, tuproqning unumdor qatlamini saqlash va undan oqilona foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi 169-son Qarori

⁸Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi: <https://www.ufrj.br>, <https://www.ufrj.br>, <http://www.upgm.mx/inicio>, <http://www.new.huji.ac.il>, www.http://ib.anrb.ru/inbio_r.htm, <http://www.dauniv.ac.in>, <http://www.uniport.edu.ng> va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

sanoatlari atrofida to'planayotgan chiqindilar ta'sirida tuproqlarni texnogen buzilishi, tuproq pH-muhitining pasayishi, zichligining ortishi, mikrobiologik olamining kamayishi asoslangan (University of Western Australia, Avstraliya); texnogen buzilgan tuproqlar rekultivatsiyasida *Salix viminalis* and *Salix purpurea* o'simliklari As, Sb, Pb metallarini tuproqlarda kamaytirishi ilmiy asoslangan (Université Orléans, Fransiya); texnogen buzilgan tuproqlar rekultivatsiyasida "Baykal YeM1" preparatini qo'llanilishi natijasida tuproqlar 96,7% gacha tozalanishi isbotlangan (Irkutsk Milliy tadqiqot davlat texnika universiteti, Rossiya); texnogen buzilgan tuproqlarni ekologik, iqtisodiy va menejment jihatdan o'rganib, ularning samarali ekanligi ilmiy asoslangan (University of Florence, Italiya).

Dunyoda sanoat tarmoqlari ta'sirida texnogen buzilgan tuproqlar xossalarini o'rganish, ekologik holatini yaxshilash va ularning rekultivatsiyasi bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: tuproqning fizik, kimyoviy va biologik xossalarini o'zgarishi, ekologik holatini yaxshilash, kimyoviy moddalar migratsiyasi, o'simliklar tomonidan tozalanishi, biochar asosida immobilizatsiya qilinishi, kimyoviy moddalar bilan harakatsiz shaklga o'tkazilishi, tuproqning yuza qatlamini mexanik olib tashlanishi, o'zini-o'zi tozalanishini rag'batlantirish, bioremediatsiyani faollashtirish, ifloslanish tavsifiga ko'ra mos rekultivatsiya tadbirlarini yaratish, rekultivatsiyadan so'ng tuproqlardan samarali foydalanish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sanoatlashgan hudud tuproqlarini texnogen buzilishi natijasida xossalarining o'zgarishi hamda ifloslanish manbalari va omillarini aniqlash bo'yicha xorijiy olimlardan A.Buluktayev, Y.Wang, L.Zhang, Ye.G.Kulikova, A.D.Burakayeva, G.V.Petrova, V.A.Androxanov, T.Kremleva, L.Chen, Q.Zhang M. Lan, Ch.Yang, Ye.S.Ushakova, T.I.Karavayeva, P.A.Belkin, O.A.Makarov, N.A.Antonenko, A.M.Shipilova, L.P.Stepanova, L.Uzarowicz, Y.Chen, S.B.Xantimirova, P.Mattei, M.A.Zaxarova shuningdek, respublika olimlaridan T.Abdraxmanov, Sh.Axmedov, X.T.Riskiyeva, X.H.Tursunov, L.A.Gafurova, G.Yuldashev, T.U.Rahimova, X.N.Karimov, M.G.Sagdiyeva, Z.A.Jabbarov, N.Shukurov, Ye.S.Abdraximova, G.I.Jumaniyazova va boshqa ko'plab olimlar tomonidan tadqiqotlar bajarilgan. Ammo sanoat korxonalarini ta'sirida kimyoviy ifloslangan tuproqlarni fizik, kimyoviy, biologik xossalari va ekologik holatini bir vaqtda o'rganish asosida mos rekultivatsiya texnologiyasini yaratish, sanoat tarmoqlari kesimida tuproqlarning og'ir metallar bilan ifloslanish xaritasini, tuproq unumdorligini tiklanish ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, rekultivatsiyadan so'ng ulardan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalarni yaratishga oid ilmiy tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti Ekologiya kafedrasining «Global iqlim o'zgarishi sharoitida bioxilma-xillikni saqlash, tuproqlarning ekologik holatini baholash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish» bosh ilmiy mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Sanoatlashgan hududlarda tarqalgan sug'oriladigan to'q tusli bo'z, tipik bo'z va bo'z-o'tloqi tuproqlarning kimyoviy ifloslanishi, atrof-

muhitga ta'sirini ochib berish va mos rekultivatsiya texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tadqiqot hududi tuproqlarining kimyoviy ifloslanish manbalari va omillarini aniqlash;

tadqiqot hududida tarqalgan tuproqlarning kimyoviy ifloslanish holati, turi va darajasini, qatlamlar bo'yicha tarqalishini aniqlash;

sanoat korxonalarini uchun muhofaza, ifloslanish va fon hududlari chegaralarini aniqlash;

kimyoviy ifloslanish ta'sirida sug'oriladigan to'q tusli bo'z, tipik bo'z va bo'z-o'tloqi tuproqlarning biologik, kimyoviy va fizikaviy xossalarning o'zgarishini aniqlash;

kimyoviy ifloslanish ta'sirida atrof-muhitdagi o'simlik dunyosi va suv manbalariga ta'sirini o'rganish;

kimyoviy ifloslanish tavsifiga ko'ra, mos rekultivatsiya texnologiyasini ishlab chiqish;

o'tkazilgan rekultivatsiyadan so'ng tuproqlarning unumdorlik ko'rsatkichlarini tiklanishini o'rganish va ilmiy asoslash;

tadqiqot hududi tuproqlarining kimyoviy ifloslanishi, kimyoviy ifloslanish ta'sirida o'simliklarning o'zgarish holati bo'yicha xarita ishlab chiqish;

o'tkazilgan rekultivatsiya tadbirlarining iqtisodiy sarf-xarajatlarini ishlab chiqish va amaliyotda foydalanish uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent viloyatidagi O'zbekiston metallurgiya kombinati AJ va Bekobodsement AJ larning atrofidagi sug'oriladigan bo'z-o'tloqi, Angren IES, Yangi Angren IES lar hamda Angren neft bazasi atrofidagi sug'oriladigan to'q tusli bo'z, shuningdek, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati AJ va Ammofos-Maksam AJ lar atrofida tarqalgan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar olingan.

Tadqiqotning predmetini tuproq, ifloslanish, ifloslanish manbalari, tuproqni agrokimyoviy, kimyoviy, fizikaviy xossalari, biologik tozalash usuli, rekultivatsiya, unumdorlik, tozalanish darajasi tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dala va laboratoriyada bajarilgan tajribalarda tuproqshunoslikdagi umumqabul qilingan zamonaviy usullar qo'llanilgan, jumladan, gumus miqdori Tyurin usuli, tuproqdagi og'ir metallar va boshqa birikmalar Mass-spektral tahlil Rossiyada ishlab chiqilgan va O'zbekistonda tasdiqlangan o'lchash tartibi (MVI) O'zO'U 0677:2015 (MVI No 499-AEM/MS) yordamida, rekultivatsiya tadbirlari (GOST. 17.5.3.04-83) davlatlararo standarti, masofalar bo'yicha mintaqalarga ajratish X.A.Djuvelikyan yondashuvi asosida, tuproq mikroflorasi (koloniyalar soni) ni aniqlash uchun O.A.Nekrasova usullari, matematik-statistik qayta ishlash B.A.Dospexov usuli bo'yicha «Statgraphics Centurion XVII» dasturidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tuproqlarning kimyoviy ifloslanishida sanoat korxonalarining turi, iqlim komponentlarining va yer usti suvlarining turlicha ta'sir etishi ochib berilgan;

tuproq va atrof-muhitni kimyoviy ifloslanishida muhofaza, ifloslanish va fon hududlari chegaralarini belgilash sanoat korxonalarining faoliyati hamda turiga bog‘liq ekanligi ilmiy asoslangan;

tadqiqot hududida tarqalgan sug‘oriladigan to‘q tusli bo‘z, tipik bo‘z va bo‘z-o‘tloqi tuproqlarning kimyoviy ifloslanishi ta‘sirida tuproq xossalarini “mikrobiologik→biologik, faollik→mexanik→fizik→kimyoviy” algoritmlar ketma-ketlikda o‘zgarishga uchrashi ochib berilgan;

o‘simliklarning tarqalish qoplami sanoat korxonalaridan chiqayotgan kimyoviy moddalarga bog‘liq tarzda shamolning asosiy yo‘nalishi bo‘yicha zarar ko‘rishi ilmiy asoslangan;

rekultivatsiyadan so‘ng tuproqlarning ekologik holati va unumdorlik ko‘rsatkichlarini tiklanishi bo‘yicha mavjud koeffitsiyentlar takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot hududi tuproqlarining kimyoviy ifloslanishi hamda o‘simliklarning o‘zgarish holati bo‘yicha xarita ishlab chiqilgan;

tadqiqot hududi tuproqlari uchun 3 bosqichli 18 ta tadbirdan iborat rekultivatsiya algoritmi va texnologiyasi ishlab chiqilgan;

rekultivatsiya tadbirlaridan so‘ng tuproqlarning agrokimyoviy, fizikaviy, mikrobiologik xossalari va ekologik holatining yaxshilanishi aniqlangan;

turli sanoat korxonalari atrofida tarqalgan sug‘oriladigan tuproqlar uchun rekultivatsiyaning iqtisodiy sarf-xarajatlari aniqlangan va tavsiyanoma ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot davomida olib borilgan rekultivatsiya tadbirlari davlatlararo standart (GOST: 17.5.3.04-83) asosida amalga oshirilganligi, tadqiqot jarayonida bajarilgan laboratoriya tajribalari bugungi kunning talablariga mos keladigan zamonaviy uslublardan va vositalardan foydalangan holda bajarilganligi, natijalar oxirgi statistik dasturlar asosida tahlil qilinganligi, olingan natijalar bo‘yicha amaliy tavsiyanoma ishlab chiqib amaliyotgan joriy qilinganligi, tadqiqot natijalari rivojlangan mamlakatlarning tadqiqot natijalari bilan tahlil qilinib taqqoslanganligi, olingan natijalar ikkita vazirlik tomonidan e‘tirof etilib, ishlab chiqarishga joriy etilganligi, olingan natijalarning xalqaro va respublika konferensiya hamda jurnal to‘plamlarida chop etilib, muhokama qilinganligi, shuningdek tadqiqot natijalarini Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan belgilangan davriy nashrlarda chop etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Toshkent viloyatining janubi-sharqiy sanoatlashgan hududlarida tarqalgan sug‘oriladigan to‘q tusli bo‘z tipik bo‘z, va bo‘z-o‘tloqi tuproqlar uchun texnik va biologik rekultivatsiyaning mexanizmi ishlab chiqilganligi, rekultivatsiya ishlarini olib borishni alohida tadbirlari belgilanganligi, sanoat va ishlab chiqarish korxonalarining chiqindilar chiqarishiga ko‘ra rekultivatsiya tadbirlari turlicha bo‘lishi, rekultivatsiya tadbirlaridan so‘ng, jumladan, tuproqlarning ekologik holatini belgilab beruvchi kimyoviy, fizikaviy hamda mikrobiologik xossalarining yaxshilanishi, sanoatlashgan hududlarda tarqalgan tuproqlarning unumdorlik ko‘rsatkichlariga qarab unga mos bo‘lgan koeffitsiyentlarini alohida hisoblanishi,

tuproqlarni tozalash bevosita unga tushgan kimyoviy moddalarning xossalriga bog'liqligining ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sanoatlashgan hududlardagi ifloslangan tuproqlarni rekultivatsiya texnologiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, bunda Toshkent viloyatidagi Angren issiqlik elektr stansiyalari, Angren neft bazasi, "Olmaliq kon metallurgiya kombinati" AJ, "Ammofos-Maksam" AJ, "O'zbekiston metallurgiya kombinati" AJ, "Bekobodsement" AJ larning atrofidagi tarqalgan ifloslangan tuproqlarni rekultivatsiya qilishga, ekologik holatini yaxshilashga, unumdorligini tiklashga hamda ulardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Toshkent viloyatining janubi-sharqiy hududi tuproqlarining ekologik holati va ularning rekultivatsiyasi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Toshkent viloyatining Bekobod, Ohangaron tumanlari, Olmaliq shahri hududida tarqalgan tuproqlarning texnogen buzilishi va kimyoviy ifloslanish holatini o'rganish, ularni rekultivatsiya qilish tadqiqotlari asosida "Toshkent viloyatining janubi-sharqiy hududi tuproqlarining ekologik holati va ularning rekultivatsiyasi" nomli tavsiyanoma Ohangaron tumanida "Mirzabek Ixtiyorbek Fayz" fermer xo'jaligida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 7-apreldagi 06/28-28-06/343-son ma'lumotnomasi). Natijada, tuproqlarning kimyoviy ifloslanishi va texnogen buzilishi ta'sirida fizik, kimyoviy va biologik xossalarni o'zgarishini baholash, ularni muhofaza qilish hamda samarali foydalanish imkonini bergan;

Toshkent viloyatining janubi-sharqiy hududida tarqalgan o'simlik, suv, tuproq resurslarini ifloslanish holati bo'yicha 1:10000 masshtabli ekologik xaritasi Ohangaron tumanida "Mirzabek Ixtiyorbek Fayz" fermer xo'jaligida amaliyotga joriy qilingan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 7-apreldagi 06/28-28-06/343-son ma'lumotnomasi). Natijada, tadqiqot hududida tarqalgan tuproqlarning kimyoviy ifloslanish holatini baholash, yerlardan samarali foydalanish, ularni muhofazalash va boshqarishga qaratilgan tadbirlarni belgilash imkonini bergan;

Toshkent viloyatining janubi-sharqiy hududidagi kimyoviy ifloslangan va texnogen buzilgan tuproqlarda texnik va biologik usulga asoslangan rekultivatsiya tadbirlari Ohangaron tumanida "Mirzabek Ixtiyorbek Fayz" fermer xo'jaligida 2,4 gektar maydonda joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 7-apreldagi 06/28-28-06/343-son ma'lumotnomasi). Natijada tuproqlarning unumdorlik ko'rsatkichlarini tiklanish va ekologik holatini yaxshilanish imkonini bergan;

tadqiqot hududidagi sug'oriladigan tuproqlarda Sb, Mn, V, Pb, As, Hg, Cu, Ni, Zh, Cd kabi elementlarning ruxsat etilgan chegaraviy ulushdan ortganligi aniqlangan, ularning tarqalish chegaralari ajratilgan va natijalar O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tarkibidagi tashkilotlarda amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining 2022-yil 30-dekabrda 03-02/7-4119-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu ma'lumotlar sanoatlashgan hududlarda tarqalgan tuproqlarni monitoring qilish va

ushbu hududlardan samarali foydalanish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini bergan;

texnogen buzilgan tuproq xossalarini yaxshilash, tuproqning ekologik holati hamda unumdorligini tiklashga yo'naltirilgan tadbirlar majmui O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tarkibidagi tashkilotlarda amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining 2022-yil 30-dekabrda 03-02/7-4119-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu rekultivatsiya tadbirlari, kompleks tadqiqotlar asosida olingan ilmiy ma'lumotlar texnogen buzilgan tuproqlarni unumdorligini tiklash, oqilona foydalanish va muhofaza qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan, 17 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 34 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta darslik, 1 ta tavsiya hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 205 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tuproqlarning ekologik holati va ularning rekultivatsiyasi (adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobida respublika va rivojlangan xorijiy mamlakatlarda olib borilgan tadqiqot natijalari asosida adabiyotlar tahlil qilingan va yoritilgan. Tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib, sanoat korxonalarini ta'sirida tuproqlarning kimyoviy moddalar, chang, kul shlaklari bilan ifloslanishi, ularni kimyoviy, fizikaviy, biologik xossalari va turli sanoat chiqindilari ta'sirida tuproqlarni ekologik holatining o'zgarishi hamda rekultivatsiya tadbirlari bo'yicha tahlillar keltirilgan. Adabiyotlar tahlili yakunida sanoat korxonalarini faoliyati ta'sirida kimyoviy ifloslanib, texnogen buzilgan tuproqlarning o'ziga xos xususiyatlarini buzilishi va ifloslanish miqdoridan kelib chiqqan holda texnik va biologik tadbirlarga asoslangan rekultivatsiya texnologiyasi yaratish lozimligi ilmiy asoslangan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o'tkazilgan joyning tabiiy sharoitlari va tadqiqot usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot hududining geografik

joylashuvi, iqlimi, o‘simlik dunyosi, sanoat korxonalari faoliyatini tuproqlarning texnogen buzilishidagi o‘rni, ilmiy tadqiqot o‘tkazilgan hudud tuproqlari hamda tadqiqot usullari to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Toshkent viloyatining umumiy maydoni 15,26 ming kv.km ni tashkil qiladi. Mazkur viloyat shimol tomondan Qozog‘iston, sharq tomondan Qirg‘iziston, janubi-sharqda Tojikiston Respublikalari bilan, respublika doirasida esa Sirdaryo va Namangan viloyatlari bilan chegaradosh bo‘lib, iqlimi keskin kontinental, qishi nam hamda nisbatan yumshoq, yozi uzoq, quyoshli kunlari ko‘p, eng yuqori harorat iyul oyida +26°C, maksimal harorat ko‘rsatkichi esa +47°C ni tashkil etadi. Ushbu viloyatda tarqalgan o‘simliklarning vegetatsiya davri 210 kunning tashkil etadi. Sanoat korxonalari ta‘sirida ayrim o‘simlik turlarining kamayib ketishi yoki yo‘q bo‘lib ketish holatlari, shuningdek, hududda mavjud o‘simliklarni morfologik belgilarida o‘zgarishlar kuzatilgan.


Sanoat korxonalaridan chiqayotgan chiqindilar ta‘sirida tuproqlarni fizik-kimyoviy va agrokimyoviy xossalari o‘zgarib, uning texnogen ifloslanishi, unumdorlik ko‘rsatkichlari pasayishi kuzatilgan. Tadqiqodlar sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi, to‘q tusli bo‘z hamda tipik bo‘z tuproqlarda olib borilgan.

Tadqiqotlar Toshkent viloyatini Bekobod tumanidagi “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” AJ va “Bekobodsement” AJ larning atrofida tarqalgan sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarda va Ohangaron tumani Angren shahrida joylashgan “Angren” IES, “Yangi Angren” IES lar hamda “Angren neft bazasi” atrofida tarqalgan sug‘oriladigan to‘q tusli bo‘z tuproqlarda shuningdek Olmaliq shahridagi “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ va “Ammofos-Maksam” AJ lar atrofida tarqalgan sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlarda olib borildi. Bundan tashqari, yuqorida nomlari keltirigan sanoat tarmoqlari hududlarida uchraydigan suv manbalari va o‘simlik resurslarini ekologik holatlari o‘rganildi. Toshkent viloyatini 7 ta sanoat tarmoqlari atrofida belgilangan standartlar asosida tuproq namunalari olindi. Shuningdek, tadqiqot davomida tuproqlarni ekologik holatini aniqlash, xossa-xususiyatlarini o‘rganish ishlari bajarildi. Bunda laboratoriya tajribalarini tuproqshunoslik, biokimyoy, mikrobiologiya, kimyo va boshqa tegishi yo‘nalishdagi zamonaviy usullardan foydalanib, davlatlararo tasdiqlangan standartlar asosida bajarilgan. Bundan tashqari, tadqiqot olib borilgan sanoat tarmoqlari hududlarga ajratib olindi. Bunga ko‘ra, I-hudud “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” AJ, II-hudud “Bekobodsement” AJ, III-hudud “Angren” IES, IV-hudud “Yangi Angren” IES, V-hudud “Angren neft bazasi”, VI-hudud “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ hamda VII-hudud “Ammofos-Maksam” AJ deb belgilandi.

Dissertasiyaning **“Toshkent viloyatining janubiy-sharqiy hududining ekologik holatini o‘zgarishi”** deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqot hududlarida tarqalgan tuproqlarning ifloslanish manbalari va omillarini aniqlash, tuproqlarni ifloslanish miqdorini tahlil qilish, sanoatlashgan hududlarda tarqalgan o‘simliklar dunyosi va suv manbalarining ekologik holatini o‘rganish, shuningdek, tadqiqot hududi tuproqlari va suvlarini kimyoviy ifloslanishi va o‘simliklarini tarqalish xaritasini ishlab chiqish ishlari bajarildi.

Bunga ko‘ra, Toshkent viloyatining Bekobod tumanida joylashgan “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” AJ va “Bekobodsement” AJ lar atrofida

tarqalgan sug'oriladigan bo'z-o'tloqi tuproqlar va Angren shahridagi "Angren" issiqlik elektr stansiyasi, shuningdek, "Yangi Angren" issiqlik elektr stansiyasi hamda "Angren neft bazasi" atrofida tarqalgan sug'oriladigan to'q tusli bo'z tuproqlar, shuningdek Olmaliq shahrida joylashgan "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ va "Ammofos-Maksam" AJ atrofida tarqalgan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarning ifloslanish manbalari sanoat korxonalari, omillari esa shamol ekanligi aniqlandi. Yuqorida nomalari keltirilgan sanoat tarmoqlaridan chiqayotgan chiqindilar asosan shamol ta'sirida tarqalishi kuzatilgan. Bekobod tumani, Angren hamda Olmaliq shaharlarini shamol yo'nalishi quyidagi rasmda keltirilgan (1-rasm)




1-rasm. Tadqiqot o'tkazilgan hududni shamol yo'nalishlari

Tadqiqot olib borilgan Bekobod tumanida shamolni asosiy yo'nalishi g'arbdan sharq tomonga, Angren shahrida janubi-g'rabdan shimoli-sharq tomonga, Olmaliq shahrida esa g'arbdan sharq tomonga esishi kuzatildi⁹.

Dunyo bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan har qanday sanoat korxonasi chiqindilari tuproqlarni texnogen ifloslanishiga va tarkibining buzilishiga olib keladi. Shu sababli, chiqindilarni qayta ishlash tizimining yo'lga qo'yilishi atrof-muhitning kamroq zarar ko'rishiga olib keladi.


Sanoat tarmoqlaridan chiqayotgan chiqindilar asosan shamol yo'nalishi bo'ylab tarqalganligi hamda tuproq, suv va o'simlik resurslarini ekologik holatlarida o'zgarishlar kuzatilganligi aniqlandi. Shuning uchun tadqiqot olib borilgan Toshkent viloyatidagi 7 ta sanoat korxonalaridan chiqayotgan chiqindilar miqdorini va tuproq, o'simlik hamda suv manbalariga ta'sir etish holatini o'rganish maqsadida shamol yo'nalishi bo'ylab kalit maydonlari belgilanib, namunalari olindi (2-rasm).

⁹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Гидрометеорология маркази // Атмосфера ҳавосининг ифлосланиш ҳолати ҳақида ахбороти // Тошкент – 2009. Б. 1-29.




Kesma qatlamlari chuqurligi 0-5 sm, 5-20 sm, 20-40 sm, 40-60 sm, 60-80 sm, 80-110 sm, 110-150 sm, 150-180 sm.

I-hududda tuproq kesmalarini tushirish nuqtalari




Kesma qatlamlari chuqurligi 0-10 sm, 10-25 sm, 25-40 sm, 40-65 sm, 65-100 sm, 100-140 sm.

II-hududda tuproq kesmalarini tushirish nuqtalari




Kesma qatlamlari chuqurligi 0-5 sm, 5-20 sm, 20-60 sm, 60-100 sm, 100-140 sm.

III-hududda tuproq kesmalarini tushirish nuqtalari




Kesma qatlamlari chuqurligi 0-5 sm, 5-25 sm, 25-60 sm, 60-100 sm, 100-150 sm.

IV-hududda tuproq kesmalarini tushirish nuqtalari




Kesma qatlamlari chuqurligi 0-5 sm, 5-22 sm, 22-55 sm, 55-95 sm, 95-145 sm.

V-hududda tuproq kesmalarini tushirish nuqtalari



Kesma qatlamlari chuqurligi 0-5 sm, 5-22 sm, 22-55 sm, 55-95 sm, 95-145 sm.

VI-hududda tuproq kesmalarini tushirish nuqtalari



Kesma qatlamlari chuqurligi 0-10 sm, 10-25 sm, 25-45 sm, 45-65 sm, 65-90 sm, 90-120 sm, 120-160 sm.

VII-hududda tuproq kesmalarini tushirish nuqtalari

2-rasm. Tadqiqot olib borilgan hududlarda tuproq kesmalarini tushirish nuqtalari

Sanoat korxonalarini atrofidan olingan tuproq namunalari laboratoriya sharoitida analiz qilinib, quyidagi natijalar olindi. Tuproq qoplamida texnogen ta'sir natijalariga ko'ra turli kimyoviy moddalar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari RECHU dan ortganligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Tadqiqod hududida tarqalgan sug'oriladigan tuproqlarning ifloslanish holati mg/kg da

№	Kimyoviy elementi	Tadqiqot hududlari						
		I	II	III	IV	V	VI	VII
1.	Li	23,0	26,0	31,0	36,0	35,0	32,0	34,0
2.	Be	1,10	2,00	3,00	1,90	1,70	3,30	2,60
3.	B	17,0	15,0	14,0	18,0	11,0	21,0	19,0
4.	Na	8600	9200	13000	12000	10000	19000	15000
5.	Mg	18000	18000	7700	14000	25000	21000	11000
6.	Al	78000	84000	75000	94000	100000	99000	72000
7.	P	600	810	480	810	710	1200	1000
8.	K	16000	16000	23000	23000	20000	35000	28000
9.	Ca	92000	120000	47000	43000	100000	16000	15000
10.	Ss	14,0	15,0	11,00	14,0	20,0	12,0	9,70
11.	Ti	2000	2100	1900	2500	2500	2300	2600
12.	V	140,0	85,0	60,0	160,0	89,0	84,0	91,0
13.	Cr	95,0	57,0	60,0	63,0	91,0	92,0	60,0
14.	Mn	610	560	730	780	760	690	760
15.	Fe	23000	20000	21000	23000	27000	24000	24000
16.	Co	18,0	10,0	10,40	13,0	15,0	13,0	12,0
17.	Ni	95,0	33,0	112,0	145,0	88,0	57,0	48,0
18.	Cu	38,0	60,0	590	29,0	47,0	350	330
19.	Zn	130	97,0	200	105,0	120	310	230
20.	Ga	11,0	13,0	16,0	14,0	14,0	17,0	16,0
21.	As	31,0	41,0	64,0	44,0	46,0	59,0	63,0
22.	Se	4,10	5,00	6,30	3,40	5,10	5,20	5,90
23.	Rb	100	97,0	140	120	120	190	160

24.	Sr	350	420	300	220	420	360	170
25.	Y	22,0	24,0	26,0	24,0	27,0	27,0	24,0
26.	Zr	64,0	69,0	110	86,0	79,0	120	110
27.	Nb	6,90	7,20	14,0	9,40	8,40	13,0	14,0
28.	Mo	2,90	2,80	13,0	5,10	2,30	7,70	17,0
29.	Ag	0,290	0,240	1,40	0,390	0,360	1,10	1,70
30.	Cd	0,220	0,160	0,550	0,200	0,240	1,10	0,880
31.	In	0,052	0,052	1,30	0,052	0,065	0,120	0,200
32.	Sn	3,30	1,60	12,0	2,10	2,50	3,90	4,10
33.	Sb	1,80	1,60	3,90	2,30	1,90	8,40	21,0
34.	Te	<0,30	0,360	0,310	<0,30	<0,30	<0,30	<0,30
35.	Cs	8,20	7,50	10,0	9,50	9,90	9,20	9,30
36.	Ba	950	740	850	660	770	830	730
37.	La	85,0	40,0	44,0	40,0	42,0	42,0	41,0
38.	Ce	97,0	76,0	84,0	79,0	80,0	77,0	80,0
39.	Pr	8,00	9,00	9,80	9,30	9,30	9,20	9,50
40.	Nd	27,0	34,0	33,0	34,0	34,0	35,0	35,0
41.	Sm	5,60	6,80	6,40	6,40	6,30	6,20	6,20
42.	Eu	1,20	1,30	14	1,40	1,40	1,20	1,10
43.	Gd	5,10	5,80	5,70	5,80	6,20	5,80	5,70
44.	Tb	0,680	0,870	0,790	0,850	0,770	0,810	0,820
45.	Dy	3,80	4,10	4,90	4,40	4,70	4,80	4,60
46.	Ho	0,670	0,730	1,00	0,760	0,960	1,00	0,890
47.	Er	2,30	2,20	2,90	2,50	2,50	2,70	3,10
48.	Tm	0,330	0,320	0,360	0,390	0,370	0,400	0,390
49.	Yb	1,80	1,90	2,40	2,20	2,20	2,70	2,60
50.	Lu	0,280	0,330	0,400	0,380	0,330	0,400	0,390
51.	Hf	1,80	1,90	3,70	2,50	2,20	3,80	3,70
52.	Ta	0,510	0,580	1,10	0,790	0,620	0,960	1,10
53.	W	1,00	1,10	120	1,70	1,20	2,10	9,10
54.	Re	<0,01	<0,01	<0,01	0,018	<0,01	0,017	0,011
55.	Pt	<0,05	<0,05	<0,05	<0,05	<0,05	<0,05	<0,05
56.	Au	<0,05	<0,05	<0,05	<0,05	<0,05	<0,05	<0,05
57.	Tl	0,340	0,460	1,10	0,650	0,460	1,10	0,870
58.	Pb	31,0	35,0	80,0	34,0	29,0	160	220
59.	Di	0,230	0,260	13,0	0,470	0,380	1,60	3,10
60.	Th	11,0	13,0	25,0	15,0	15,0	22,0	19,0
61.	U	3,00	3,90	6,90	3,00	3,20	5,90	4,10

Olingan natijalarga ko‘ra, I-hududda tarqalgan sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarlarda RECHU ga nisbatan Ni - 1,11 marta, Zn - 1,3 marta, As - 14,5 marta, Pb - 1,03 marta, II-hududda tarqalgan sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarda Cu - 1,09 marta, As - 20,05 marta, Pb - 1,03 marta, III-hududda tarqalgan to‘q tusli bo‘z tuproqlarda Ni - 1,31 marta, Cu - 10,7 marta, Zn - 2 marta, As - 32 marta, Pb - 2,6 marta, IV-hududda tarqalgan to‘q tusli bo‘z tuproqlarda V - 1,06 marta, Ni - 1,7 marta, Zn - 1,05 marta, As - 22 marta, Pb - 1,13 marta, V-hududda tarqalgan to‘q tusli bo‘z tuproqlarda Ni - 1,03 marta, As - 23 marta, Zn - 1,2 marta, VI-hududda tarqalgan tipik bo‘z tuproqlarda Cu - 6,3 marta, Zn - 3,1 marta, As - 29,5 marta, Cd - 1,5 marta, Sb - 1,95 marta Pb - 5,3 marta, VII-hududda tarqalgan tipik bo‘z

tuproqlarda Cu - 6 marta, Zn - 2,3 marta, As - 31,5 marta, Cd - 1,25 marta, Sb - 4,88 marta, Pb - 7,3 marta ortganligi kuzatildi.

Tadqiqot olib borilgan 7 ta sanoat tarmog'ining atrof-muhitga ta'siri turlicha ekanligi hamda ifloslanish darajasi va manbasiga qarab, quyidagi chegaralarga ajratib olindi (2-jadval).

2-jadval

Tadqiqot hududida tarqalgan tuproqlarni kimyoviy ifloslanish chegaralari

Tadqiqot hududlari	Sanoat korxonalariga nisbatan tuproqlarni ifloslanish chegaralari km/da			Fon hudud
	Kuchli	O'rtacha	Kuchsiz	
I-hudud	0,3-4	4-16	16-22	23-25
II-hudud	0,7-2	2-4	4-7	7-9
III-hudud	1,5-2,7	2,7-9	9-20	20-23
IV-hudud	1,7-2	2-10	10-23	23-24
V-hudud	0,2-0,7	0,7-2	2-3,4	3,4-3,9
VI-hudud	0,7-7	7-14	14-22	22-23
VII-hudud	0,6-5	5-9	9-14	14-18

Bunda sanoat korxonalariga nisbatan tuproqlarni ifloslanish chegaralariga ko'ra uchta kuchli, o'rtacha, kuchsiz guruhlar hamda fon hududlarga ajratildi.


Sanoat tarmoqlarini atrofida tarqalgan suv manbalari tarkibida uchraydigan kimyoviy elementlarning miqdori va RECHU me'yori to'g'risidagi ma'umotlar 3-jadvallarda keltirilgan (3-jadval).

3-jadval

Tadqiqot hududida tarqalgan suv manbalari tarkibidagi kimyoviy elementlar miqdorlari, mg/l (2021-yil oktabr va 2022-yil noyabr holatiga ko'ra)

Tadqiqot hududlari	Miqdori, mg/l										
	F	K	Na	Mn	Pb	Cu	Cr	Zn	Hi	As	Al
2021 yil oktabr holatiga ko'ra											
I-hudud	0,79	51,9	145,00	0,002	0,008	0,0035	0,0009	0,0044	0,07	0,05	<0,02
II-hudud	0,76	52,7	139,00	0,004	0,007	0,0034	0,0008	0,0046	0,11	0,04	<0,01
III-hudud	0,78	51,6	149,00	0,023	0,029	0,0037	0,0015	0,0064	0,04	0,03	0,03
IV-hudud	0,85	53,8	146,00	0,012	0,034	0,0014	0,0009	0,0241	0,01	0,02	<0,01
V-hudud	0,88	54,9	136,00	0,005	0,006	0,0027	0,0004	0,0045	0,09	0,04	<0,001
VI-hudud	0,76	51,1	151,00	0,003	0,011	0,0011	0,0007	0,0054	0,06	0,07	<0,006
VII-hudud	0,81	52,4	128,00	0,008	0,016	0,0054	0,001	0,0048	0,02	0,08	<0,009
2022 yil noyabr holatiga ko'ra											
I-hudud	0,88	54,4	141,00	0,003	0,009	0,0059	0,0008	0,0046	0,09	0,03	<0,007
II-hudud	0,81	55,3	129,00	0,002	0,012	0,0064	0,0004	0,0045	0,12	0,05	<0,008
III-hudud	0,83	52,5	147,00	0,014	0,018	0,0043	0,0007	0,0086	0,01	0,02	0,04
IV-hudud	0,78	51,9	139,00	0,015	0,011	0,0025	0,0005	0,0056	0,07	0,04	<0,009
V-hudud	0,81	53,4	146,00	0,006	0,005	0,0028	0,0006	0,0061	0,04	0,05	<0,006
VI-hudud	0,84	54,3	150,00	0,01	0,026	0,0054	0,0006	0,0065	0,04	0,04	<0,004
VII-hudud	0,85	52,4	128,00	0,013	0,029	0,0046	0,0009	0,0084	0,02	0,03	<0,006
RECHU	0,75	50	120	0,1	0,03	0,001	0,001	0,01	0,1	0,05	0,2


Natijalarga ko'ra, I-hudud suv manbalari F, K, Na, Cu, II-hudud suv manbalari F, K, Na, Cu, Ni III-hudud suv manbalari F, K, Na, Cu, Al, IV-hudud suv manbalari F, K, Na, Pb, Cu, Zn, V-hudud suv manbalari F, K, Na, Cu, VI-hudud suv manbalari



3-rasm. Tadqiqot hududi tuproqlarining kimyoviy elementlar bilan ifloslanishi bo'yicha xarita

Yuqorida keltirilgan 3-rasmlarda tadqiqot hududi tuproqlarini Pb, Sb, V, Zn, As, Cd, Cu, Ni kabi og'ir metallar bilan ifloslanish xaritasi tasvirlangan.

Tadqiqot hududlarida o'simliklarni tarqalishi bo'yicha suv manbalarini ifloslanish xaritalari quyidagi rasmda keltirilgan (4-rasm).



4-rasm. Tadqiqot hududi o'simliklarini tarqalish, suv manbalarini kimyoviy ifloslanish xaritalari

Ushbu xaritalarni ishlab chiqishda o‘simliklarni tarqalishi bo‘yicha olib borilgan kuzatuv-tahlil natijalari hamda suv manbalarini kimyoviy elementlar bilan ifloslanish miqdorlari bo‘yicha olingan ma’lumotlardan foydalanildi.

Dissertatsiyaning **“Kimyoviy ifloslangan tuproqlarning xossalarini o‘zgarishi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida sanoat korxonalari ta‘sirida tuproqlarni morfologik belgilarini, fizik, kimyoviy va agrokimyoviy biologik xossalarini o‘zgarishi tahlil qilindi.


Sanoatlashgan hududlarda tuproqlarni texnogen buzilishi uning xossalarini o‘zgarishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, tuproqlarni xossalarini o‘zgarishi quyidagi ketma-ketlikda kuzatilgan (4-jadval)

4-jadval


Sanoatlashgan hududlarning tuproq xossalari va rejimlarini o‘zgarish ketma-ketligi



Olib borilgan tadqiqotlar davomida 7 ta tadqiqot hududi tuproqlarining kimyoviy suvli so‘rim tahlili laboratoriya sharoitida bajarildi. Bunga ko‘ra, “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” AJ va “Bekobodsement” AJ lar atrofida tarqalgan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarning suvli so‘rim tarkibi analiz qilindi. Laboratoriya sharoitida olingan natijalarga ko‘ra, “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” AJ va “Bekobodsement” AJ lar atrofida tarqalgan bo‘z-o‘tloqi tuproqlar kuchsiz hamda o‘rtacha sho‘rlanganligi aniqlandi (5 va 6-rasm).




5-rasm. “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” AJ atrofida tarqalgan sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarning suvli so‘rim tarkibi




6-rasm. “Bekobodsement” AJ atrofida tarqalgan sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarning suvli so‘rim tarkibi

“O‘zbekiston metallurgiya kombinati” AJ hamda “Bekobodsement” AJ lardan chiqayotgan og‘ir metallar, kul, kimyoviy birikmalar va boshqa turdagi elementlar hududda tarqalgan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarni kuchsiz va o‘rtacha sho‘rlanishiga ta’sir ko‘rsatmagan. Ushbu hududda uchraydigan tuproqlarning sho‘rlanishi uning ona jinsi va minerallariga bog‘liq holda kelib chiqqan sho‘rlanish ekanligi aniqlandi.


“Angren” IES va “Yangi Angren” IES hamda “Angren neft baza”lari atrofida tarqalgan to‘q tusli bo‘z tuproqlaridan 0-5 sm va 5-20 sm chuqurliklardan olingan tuproq namunalarida uning sho‘rlanish tipi sulfatli ekanligi kuzatildi (7, 8, 9-rasmlar).



7-rasm. “Angren” IES atrofida tarqalgan to‘q tusli bo‘z tuproqlarining suvli so‘rim tarkibi




8-rasm. “Yangi Angren” IES atrofida tarqalgan to‘q tusli bo‘z tuproqlarning suvli so‘rim tarkibi




9-rasm. “Angren neft baza” lari atrofida tarqalgan to‘q tusli bo‘z tuproqlarining suvli so‘rim tarkibi

Tadqiqot olib borilgan ushbu uchta sanoat tarmoqlarining chiqindilari atrofida tarqalgan tuproqlar sho‘rlanishiga hech qanday ta’sir qilmaganligi aniqlandi. Chunki yuqorida nomlari keltirilgan sanoat tarmoqlaridan chiqayotgan chiqindilar tuproqlar sho‘rlanish miqdorining ortishiga ta’sir ko‘rsatmagan. Shuningdek, uchta sanoat tarmoqlari atrofida tarqalgan tuproqlarning 0-5 sm va 5-20 sm chiqurlikda olingan natijalarda sho‘rlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan farqli o‘zgarish kuzatilmadi.

“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ va “Ammofos-Maksam” AJ ning ta’sirida hududda tarqalgan tipik bo‘z tuproqlarning suvli so‘rim tarkibini o‘zgarishi laboratoriya sharoitida o‘rganildi (10 va 11-rasmlar).



10-rasm. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ atrofida tarqalgan tipik bo‘z tuproqlarning suvli so‘rim tarkibi




11-rasm. “Ammofos-Maksim” AJ atrofida tarqalgan tipik bo‘z tuproqlarining suvli so‘rim tarkibi

“Olmaliq kon-metallurgiya kombinat” AJ dan 0,9 km, 2,8 km, 6 km, 15 km, 22 km lardan 0-5 va 5-20 smlardan tuproq namunalari olinib, laboratoriya sharoitida tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko‘ra, kombinatdan chiqayotgan chiqindilar ta’sirida atrofida tarqalgan tuproqlar sho‘rlanishga uchramaganligi aniqlandi. Bundan tashqari, “Ammofos-Maksim” AJ dan chiqayotgan kul chiqindilari katta maydonlarga to‘plangan, lekin hududda tarqalgan tipik bo‘z tuproqlarini sho‘rlanish miqdorini ortishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmagan.

Dissertatsiyaning yakunlovchi “**Tadqiqot hududida tarqalgan tuproqlarning rekultivatsiyasi**” deb nomlangan beshinchi bobida Sanoat korxonalarini atrofida tarqalgan tuproqlarning ekologik holatlari har yili doimiy ravishda tekshirilib turilishi hamda inson va o‘simliklar uchun xavfli elementlar miqdori RECHU dan ortishi bilan uni bartaraf etish choralarini ko‘rish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Sanoat korxonalarini ta’sirida texnogen ifloslangan tuproqlarda rekultivatsiya tadbirlarini qo‘llash bo‘yicha barajilishi lozim bo‘lgan ishlarning algoritmi ishlab chiqildi. Ushbu rekultivatsiya algoritmi 3 bosqichda 18 ta tadbirdan iborat ishlarni bajarish lozim deb hisoblandi (5-jadval).

Sanoat tarmoqlari ta'sirida texnogen buzilgan tuproqlarni rekultivatsiya tadbirlarining algoritmi



